



MALAY TILIDAGI AFFIKSLARDAN YASALGAN LEKSEMALAR TAHLILI

Mamatkulova Mahliyo Baxtiyor qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Malay tili o'qituvchi-stajyori

ilmumelayu2021@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10652692>

Annotatsiya: Ushbu tezis malay tilida affiksatsiya usulida yasalgan so'zlarning struktur yasalishini o'rganib chiqish bosqichlarini bayon etadi. Ilmiy tadqiqot maqsad va vazifalari belgilab o'tildi. Affikslar bilan yasalgan so'zlarning ma'no hamda qo'llanilish tartiblaridagi xatoliklar sabab va natijalari keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: affikslar, malay tili, yozma nutq, mahalliy so'zlashuvchilar, so'z turkumlari.

Аннотация: В данной тезисе описаны этапы изучения структуры слов образованных аффиксацией в малайском языке. Определены цели и задачи научного исследования. Указаны причины и последствия ошибок в значении и употреблении слов, образованных аффиксами.

Ключевые слова: аффиксы, малайский язык, письменная речь, носитель языка.

Annotation: This thesis describes the stages of studying the structure of words formed by affixation in the Malay language. The goals and objectives of the scientific research were determined. was asked.

Key words: affixes, malaysian language, written speech, native speakers, phrases.

Malay tilida affikslardan yasalgan leksemalar og'zaki va yozma nutqda ko'p uchraydi. Affikslar so'z asoslariga qo'shilib turli so'z turkumlarini hosil qiladi (fe'l, ot, son, sifat). Shuningdek, fe'lning o'timli, o'timsiz hamda majhul nisbatlarini ifodalashda ham asosiy o'rinni egallaydi. Ularni to'g'ri qo'llay olish malay tili grammatikasida muhim unsurlardan biri hisoblanadi. Ushbu ilmiy ishning o'ziga xos taraflaridan biri affiksatsiya o'zbek tilida ilk o'rganilayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, malay tilshunosligida hozirgi kunga qadar ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Umumta'lim maktablaridagi so'rovnomalar hamda test natijalariga ko'ra mahalliy aholi ham qo'shimchalarni qo'llashda qiyinchilikka duch keladi. Asosan fe'llarni ifodalovchi *meN-*, *beR-* hamda *di-* qo'shimchalarini qo'llashda xatolik yuzaga keladi.





Affikslardan to'g'ri foydalanmaslik morfologik, fonetik hamda grammatik xatolarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Malay tilida affiksatsiya usulida yasalgan so'zlarning lisoniy hamda struktur tahlilini o'rganish juda ham muhim hisoblanadi. Chunki ushbu masala chuqur tadqiq qilinmasa malay tili grammatikasida xato qilish odat tusiga aylanib, til o'rganuvchiga bu oddiy holat bo'lib qolish ehtimoli mavjud. Barcha qo'shimchalarning o'z vazifasi bor.

Malay tilida affiksatsiya haqidagi ma'lumotlar *Tatabahasa Dewan* (Fazal Muhamed, 2010) kitobida chuqur ko'rsatilgan. Ushbu manbada affiksatsiya usulida yasalgan leksemalar hamda ularning ma'nolari, turlari va qo'llanilishi keltirilgan. Yuqorida sanab o'tilgan qo'shimchalar so'z asosiga qo'shib, ma'no o'zgarishiga sabab bo'ladi: *besar-membesar-terbesar* (katta, kattalashmoq, eng katta) kabi.

Ilmiy ish ob'yekti affiksatsiya usulida yasalgan so'zlarning qo'llanilishidagi xatolarni analiz qilishdan iboratdir. Shuning bilan birga, meN-, di-, beR- qo'shimchalarining yozuvda qo'llanilishidagi xatoliklarning yuzaga kelish sabablarini o'rganish chiqish hisoblanadi.

meN- fe'l yasovchi qo'shimchasi malay tili grammatikasida ko'p qo'llaniladi. Chunki ushbu qo'shimchalarning turi 4 ta bo'lib, har jiahtdan bir-biridan farq qiladi. Nik Safiah Karim, Nurul Huda, Nor Hashimahlar ushbu mavzu ustida ko'p ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Nurul Huda va Nor Hashimalarning fikriga ko'ra, ushbu qo'shimcha asosan ot so'z turkumidagi so'z asosiga qo'shib, ma'noni kuchaytirish, o'zgartirish xususiyatiga ega. Misol uchun "menggugung" so'zining ham menjadi seperi (xuddi, -dek), mengambil akan keadaan, berkeadaan (biror bir holatda bo'lish) kabi ma'nolari mavjud. Amirra Shazreena (2019) ning ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, malay tilida so'zlashuvchilarning aksariyat qismi, qo'shimcha qo'shilganda so'z asosi tarkibidagi harflarning o'zgarish hodisasini tushunmasligi ayon bo'ldi. Misol uchun, *menyasu(sapu), lap-mengelap* kabi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Jafar Jambi. Cabaran dan proses pemantapan Bahasa Melayu. Jurnal pengajian Melayu 19, 68-90. 2008
2. Nor Hashimah Jalaluddin. Percampuran kod dalam penulisan karangan bahasa Melayu pelajar cina: Analisis pragmatik. Jurnal Bahasa 16, 76-93. 2016
3. Roksana Bibi Abdullah. Penyerapan bahasa dalam pertembungan budaya: Kesalingan pinjam meminjam dalam kalangan tiga kelompok masyarakat di Singapura. PENDETA - Jurnal Bahasa dan Sastra Melayu, 6, 137-161. 2015

